Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Региональный туристский кластер – как инструмент повышения эффективности экономики региона.....	965
Юсупова Нигина Тажиевна	
Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
Xoliyov Murod Qahramon o'g'li	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию	977
Шарипова Шахло Истамовна	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari	982
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari	986
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili	994
To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li	
Advancing tourist safety management in Uzbekistan's growing tourism industry: a systems theory approach	999
Laylo Primova	
Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar	1006
Yerejepova Bibisara Abibullayevna	
Основные проблемы и вызовы в создании умных городов	1010
Хакбердиева Нозима Кахрамоновна	
Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlarini	1015
Asadova Maftuna Sa'dullaevna	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish	1020
Ismailov Temur Pulatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili	1024
Sharipov R.S.	
Sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi va tartibga solish mexanizmlari	1030
Rasulov Jamshid Karimovich	
To'qimachilik sanoati korxonalarida eksport salohiyatini rivojlantirishda boshqaruv jarayonlarini o'ziga hos xususiyatlari	1036
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar moliyaviy tahlili	1040
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishni boshqarish tizimini takomillashtirish	1045
Smetov Murat Inyatovich	
Sanoat investitsion salohiyatini amalga oshirish mexanizmining mahalliy va xorijiy tajribalarini qiyosiy tahlili	1050
Bayniyazova Malika Polatovna	
Korxonalarda raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning bozor raqobatbardoshligiga ta'siri	1056
Mamadjanova Tuyg'unoy Aхмаджановна	
Руководство страховыми операциями: стратегический подход	1062
Тулаев Дилшод Юсуфович	
Sanoatni rivojlantirishda innovatsion boshqarishni takomillashtirish strategiyasi	1068
Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli chakana xizmatlarni takomillashtirish yo'llari	1073
Axmedov G'ofurjon Gulomjonovich	
Maktab o'quv dasturlariga turizm va mehmondo'stlik tarmog'ini integratsiyalashning soha rivojidadagi ahamiyati	1078
Nilufar Raxmonova Yorqinovna	
Namangan viloyatidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari salohiyati	1083
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	



Инновационные подходы к обеспечению экологической и экономической устойчивости в области энергосбережения и эффективного управления водными ресурсами	1088
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич, Ешмирзаев Содикжон Еркинбой угли, Кохарова Далира Рустам кизи	
Kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirish	1095
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Зеленая экономика и устойчивое развитие: экономический взгляд.....	1100
Акбаралиева Сугдиёна Улугбек кизи, Ахмедиева А.Т.	
Raqamli iqtisodiyot orqali investitsiyalarni jalb qilish va O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari.....	1105
Norpo'latov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
Инновационные факторы развития аграрного производства региона.....	1109
Сирожиiddinov Икромиддин Кутбиддинович	
Анализ развития зеленой экономики в глобальном контексте и в Республике Узбекистан.....	1114
Хусаинов Равшан Рахимович	
Marketing jarayonlarida emotsional intellektning roli va uning neyromarketing strategiyalari samaradorligiga ta'siri	1120
Pulatova Nigoraxon Nurullaevna	
O'zbekiston hududlarida aholi bandligi tahlili (2020–2024-yillar).....	1124
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Barqaror qishloq xo'jaligida yashil logistika (Green Logistics) mexanizmlarini joriy etish.....	1128
Abdirashidov Temurbek Abdirashid o'g'li	
Innovatsion iqtisodiyotda karshering xizmatlarining nazariy asoslari.....	1134
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Mintaqada mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1139
Jasur Berdiyev	
Turizm xizmatlari samaradorligini oshirish metodologiyasini rivojlantirish	1143
Toshev Nurbek Janon o'g'li	
Iqtisodiy barqarorlikka erishishda quyosh panellarining roli	1147
Qodirov Bahodirjon Tursunovich	
Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasi: nazariy va amaliy jihatlar.....	1152
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna, Egamkulov Aziz Abdurasulovich	
Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini ARIMA modeli orqali ekonometrik modellash tirish	1156
Jo'rayev Olim Albayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv mohiyatini aniqlashning ilmiy yondashuvlari.....	1163
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Asosiy vositalarni hisobga olish va ularni audit qilish masalalari: nazariy va amaliy yondashuvlar	1168
Diyorbek Mamarasulov Alijon o'g'li	



ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA OLISH VA ULARNI AUDIT QILISH MASALALARI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Diyorbek Mamarasulov Alijon o'g'li

Farg'ona Davlat Texnika Universiteti tayanch doktoranti

e-mail: eldijaeldija@gmail.com,

<https://orcid.org/0009-0006-9794-7488>

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosiy vositalarni buxgalteriya hisobi va ularni audit qilish masalalari o'rganilgan. Xususan, O'zbekistonda amaldagi milliy standartlar (BHMS-NAS) hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS-IFRS) o'rtasidagi tafovutlar tahlil qilingan. Amortizatsiya siyosatini shakllantirish, asosiy vositalar qadrsizlanishini hisobga olish, shuningdek, komponent yondashuvini qo'llash bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalarida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish uchun metodologik takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Asosiy vositalar, buxgalteriya hisobi, audit, amortizatsiya, qadrsizlanish, IFRS, BHMS, shaffoflik.

Abstract: This article studies the issues of accounting for fixed assets and their auditing. In particular, the differences between the national standards (BHMS-NAS) and international financial reporting standards (IAS-IFRS) in force in Uzbekistan are analyzed. The research of foreign and domestic scientists on the formation of depreciation policy, accounting for depreciation of fixed assets, as well as the use of the component approach are considered. The results of the research have developed methodological proposals for improving the accounting and auditing of fixed assets.

Key words: Fixed assets, accounting, audit, depreciation, depreciation, IFRS, BHMS, transparency.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы учета основных средств и их аудита. В частности, анализируются различия между национальными стандартами (BHMS-NAS) и международными стандартами финансовой отчетности (IAS-IFRS), действующими в Узбекистане. Рассматриваются исследования зарубежных и отечественных ученых по формированию амортизационной политики, учету амортизации основных средств, а также применению компонентного подхода. По результатам исследования разработаны методические предложения по совершенствованию учета и аудита основных средств.

Ключевые слова: Основные средства, бухгалтерский учет, аудит, амортизация, МСФО, BHMS, прозрачность.

KIRISH

Asosiy vositalar xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat davomida foydalaniladigan eng muhim resurslaridan biri hisoblanadi. Ular tashkilotning ishlab chiqarish quvvatini, moddiy-texnik bazasini va iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olish va ularni o'z vaqtida auditdan o'tkazish moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi, shaffofligi va ishonchligi uchun zarurdir. Shu bois, asosiy vositalar buxgalteriya hisobi va ularni audit qilish masalalari nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro miqyosda ham ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanib borayotgan, bozor tamoyillari tobora chuqurlashayotgan bir sharoitda milliy hisob standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bilan uyg'unlashtirish masalasi ustuvor vazifalardan sanaladi. Jumladan, 2020-yilda qabul qilingan Prezident qaroriga muvofiq, yirik soliq to'lovchi va o'rta korxonalar 2021-yildan boshlab bosqichma-bosqich IFRS asosida hisobot yuritishni boshladi¹ [1]. Bu jarayon, albatta, asosiy vositalarni hisobga olish va ularni audit qilish amaliyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator muammolar mavjud. Jumladan, asosiy vositalar qadrsizlanishini baholash, komponent yondashuvini joriy qilish, amortizatsiya siyosatini xalqaro mezonlarga moslashtirish, shuningdek, asosiy vositalar bo'yicha audit jarayonida mavjudlik va baholash kabi asosiy auditorlik tasdiqlovlari (assertions)ni to'liq qamrab olishda qiyinchiliklar kuzatilmoqda [2, 7]. Bu esa investorlarga taqdim etilayotgan

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 24.02.2020 yildagi No. PQ-4611-son



moliyaviy hisobotlarning ishonchligini pasaytirishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, asosiy vositalar hisobi va auditidagi ushbu muammolarni xalqaro tajribaga tayangan holda bartaraf etish O'zbekiston korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi – asosiy vositalarni hisobga olish va audit qilishning nazariy hamda amaliy asoslarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda asosiy vositalar hisobi va auditiga oid ilmiy ishlanmalar ko'payib bormoqda. Ularda nazariy yondashuvlar, milliy va xalqaro standartlarni qiyosiy o'rganish hamda amaliy muammolarni hal qilish bo'yicha qator takliflar berilgan.

Jumladan Khatamov A. O'zbekistonda asosiy vositalar hisobining nazariy asoslarini keng tahlil qilgan [10]. Muallif asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini shakllantirish, qayta baholash, amortizatsiya hisoblash va qoldiq qiymatni aniqlash muammolarini yoritgan. Shuningdek, asosiy vositalarni audit qilishda uchraydigan xatoliklar va inventarizatsiya jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha yondashuvlarni taklif qilgan.

Ismanov A. va Moydinov B. IFRS talablariga muvofiq komponent yondashuv masalasini o'rgangan [11]. Ular O'zbekistonda bu yondashuv amalda joriy qilinmaganini va bu holat yirik obyektlarning amortizatsiya hisobida noaniqliklar keltirib chiqarayotganini ko'rsatgan.

Boltayev A. qishloq xo'jaligida ko'p yillik o'simliklar misolida asosiy vositalar hisobi masalalarini o'rgangan [12]. U soliq hisobi va buxgalteriya hisobi o'rtasidagi tafovutlarni tahlil qilgan va fermer xo'jaliklari uchun amortizatsiya siyosatini shakllantirishda qiyinchiliklarni ko'rsatib bergan.

Mamarasulov D. (2024) asosiy vositalar qadrsizlanishini hisobga olish muammolarini tahlil qilgan. O'zbekistonda milliy standartlarda bu jarayon yetarlicha tartibga solinmaganini, IFRS (IAS 36) talablariga esa to'liq mos kelmasligini qayd etgan [5].

Roedl & Partner (2023) tomonidan tayyorlangan "Uzbekistan Financial Accounting and Reporting Guide" amaliy qo'llanmasida O'zbekiston milliy standartlari bo'yicha asosiy vositalarni hisobga olish tartiblari keng yoritilgan [9]. Qo'llanmada asosiy vositalarni qabul qilish, xizmat muddatini belgilash, qayta baholash va hisobdan chiqarish qoidalari amaliy misollar bilan ko'rsatilgan.

Ganiboyev I. (2021) milliy va xalqaro standartlarga muvofiq asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalarini o'rgangan. Muallif huquqiy-me'yoriy bazani tahlil qilib, xalqaro standartlarga moslashish zarurligini ta'kidlagan.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotlarning barchasi O'zbekistonda asosiy vositalar hisobi va auditida uchraydigan nazariy hamda amaliy muammolarni ko'rsatib, xalqaro tajribani joriy etish yo'llarini taklif qilmoqda. Ayniqsa, amortizatsiya, qadrsizlanish, komponent yondashuvi va audit jarayonlarida metodologik yangiliklar zarurligi alohida ta'kidlanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, mavjud buxgalteriya standartlari (NAS va IFRS)ni solishtirish hamda mahalliy amaliyotni xalqaro tajriba bilan qiyoslash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ayrim korxonalarning moliyaviy hisobotlari va auditorlik xulosalari misolida kuzatuv va tahlillar amalga oshirildi. Natijalarni yanada asoslash maqsadida xorijiy ilmiy maqolalardagi ilg'or tajribalar ham o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy vositalar xo'jalik yurituvchi subyektlarning eng muhim resurslaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish quvvatini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda asosiy vositalar qiymati 650 trillion so'mdan oshib, sanoat korxonalari balansida ularning ulushi umumiy aktivlarning 35 foizidan ko'proqni tashkil etgan. Bu esa moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalarning to'g'ri aks ettirilishi va ularning haqqoniy audit qilinishi investorlarga aniq qaror qabul qilish imkonini berishini ko'rsatadi.

Asosiy vositalar hisobining milliy va xalqaro standartlar bo'yicha tahlili

Milliy buxgalteriya standarti (NAS №5 "Asosiy vositalar") aktivlarning boshlang'ich qiymati, qayta baholash va amortizatsiya jarayonlarini tartibga soladi. Ammo bu yerda bir qator bo'shliqlar mavjud, masalan, qadrsizlanish testlari bo'yicha batafsil ko'rsatmalar yo'q [3]. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IAS 16 va IAS 36) esa asosiy vositalarni baholash va qadrsizlanishni aniqlash bo'yicha aniq qoidalarni belgilaydi.



Amortizatsiya siyosati va moliyaviy natijalarga ta'siri

O'zbekiston korxonalarida amalda eng ko'p qo'llaniladigan usul — bu to'g'ri chiziqli amortizatsiya. Uning afzalligi oddiylilik va nazoratning osonligidir. Biroq bu usul aktivdan foydalanish intensivligini hisobga olmaydi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida uskunalar dastlabki yillarda ko'proq ishlatiladi, keyingi yillarda esa kamayadi. Shunday hollarda ishlab chiqarish usulidan foydalanish moliyaviy natijalarni haqqoniyroq ko'rsatadi.

Xalqaro standartlarda amortizatsiya usuli aktivdan olinadigan iqtisodiy foyda oqimlariga asoslangan bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Shu sababli ko'plab xorijiy kompaniyalar tezlashtirilgan yoki ishlab chiqarish usullarini qo'llaydi [4]. O'zbekistonda esa ko'pincha soliq hisoboti qulayligi uchun tanlov qilinadi, bu esa xalqaro investorlar uchun ma'lumotlarning taqqoslanishini qiyinlashtiradi.

Komponent yondashuvi va amaliyotdagi muammolar

Komponent yondashuvi — bu asosiy vositalarni ularning tarkibiy qismlari bo'yicha alohida hisobga olishdir. IAS 16 standarti bo'yicha, agar aktivning alohida qismlari turlicha xizmat muddatiga ega bo'lsa, ular alohida amortizatsiyalanishi kerak.

O'zbekistonda amalda bunday yondashuv deyarli qo'llanilmaydi. Masalan, "O'zbekiston havo yo'llari" AJ balansida samolyotlar yagona obyekt sifatida hisobga olinadi. Samolyotning dvigateli 7–8 yilda almashtirilsa-da, salon yoki fuselyaj 20 yil xizmat qilishi mumkin. Lekin ular uchun yagona amortizatsiya stavkasi qo'llaniladi.

Audit jarayonidagi asosiy risklar

Asosiy vositalar auditida eng ko'p uchraydigan risklar quyidagilardan iborat:

- Mavjudlik riski: balansda qayd etilgan, ammo realda mavjud bo'lmagan "fantom aktivlar". 2022-yilda Davlat moliya nazorati departamenti tekshiruvlari davomida ayrim davlat tashkilotlari balansida 20 yil oldin foydalanishdan chiqarilgan uskunalar mavjudligi aniqlangan.

- To'liqlik riski: yangi sotib olingan aktivlar vaqtida hisobda aks ettirilmasligi.

- Baholash riski: aktivlarning qayta baholashsiz uzoq yillar davomida balansda turishi, natijada balans qiymati va bozor qiymati o'rtasida katta tafovut yuzaga kelishi.

- Huquqiy risk: lizing asosida foydalanilayotgan, lekin egalik huquqi noto'g'ri ko'rsatilgan aktivlar.

Auditorlar bunday risklarni kamaytirish uchun xalqaro audit standartlariga tayanadi. Masalan, ISA 500 "Audit Evidence" da auditorlik dalillarining "yetarli va mos" bo'lishi talabi mavjud.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar

Rivojlangan davlatlarda asosiy vositalar auditida jarayonida texnologiyalardan keng foydalanilmoqda:

- ERP tizimlari (SAP, Oracle, 1C): aktivlarni avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olish, amortizatsiyani hisoblash va inventarizatsiyani soddalashtirish.

- Blockchain: aktivlarning sotib olinishi, harakatlanishi va chiqarib tashlanishi jarayonlarini shaffof qayd etish.

- RFID teglar: aktivlarning joylashuvi va ishlatilishini kuzatish.

- Sun'iy intellekt: amortizatsiya stavkalarini optimallashtirish va qadrsizlanish xavfini prognoz qilish.

O'zbekistonda ham bunday innovatsiyalar asta-sekin joriy etilmoqda. Masalan, "O'zAuto Motors" AJ ERP tizimini tatbiq qilib, asosiy vositalar hisobi va auditini to'liq raqamlashtirdi.

Davlat sektori va xalqaro tajriba

O'zbekiston korxonalarida asosiy vositalar hisobini yuritish va ularni audit qilishda milliy qonunchilik asoslari mavjud bo'lsa-da, xalqaro tajribaga to'liq moslashtirish kerak. Amortizatsiya siyosati ko'proq soliq hisoboti qulayligi asosida shakllanmoqda, qadrsizlanish mexanizmi deyarli mavjud emas, komponent yondashuvi qo'llanilmaydi. Audit jarayonida mavjudlik va baholash risklari eng katta muammo bo'lib qolmoqda.

Xalqaro amaliyotda esa auditorlar aktivlarni 7 bosqichda tekshiradi, raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi, davlat sektorida IPSAS standartlari tatbiq qilinadi. O'zbekiston uchun ham ushbu ilg'or tajribalarni bosqichma-bosqich joriy qilish, milliy standartlarni IFRS va IPSAS bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot va o'rganilgan manbalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar, amaliyotda uchrayotgan "fantom aktivlar" muammosi, qadrsizlanish testlarining yo'qligi hamda komponent yondashuvining qo'llanilmasligi moliyaviy hisobotlarning haqqoniylikiga putur yetkazmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish uchun nafaqat milliy qonunchilikni uyg'unlashtirish, balki xalqaro tajriba va ilg'or yondashuvlardan foydalanish muhimdir.

Birinchidan, AssetCues tomonidan taqdim etilgan "Verification of Assets in Auditing" maqolasida ta'kidlanganidek, asosiy vositalarni audit qilishda yetti bosqichdan iborat tizimli yondashuvni joriy etish lozim:



aktivlarning ro'yxati va general ledger bilan mosligini tekshirish, fizik tekshiruv, qiymatini baholash va hujjatlar asosida tasdiqlash. Bunday bosqichma-bosqich yondashuv O'zbekistonda ham auditorlar uchun majburiy metodika sifatida qo'llansa, "ghost assets" — ya'ni faqat qog'ozda mavjud aktivlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, Coastal Kapital manbasida yoritilganidek, audit jarayoni nafaqat aktivlarning mavjudligi, balki ularning holati va real qiymatini baholashni ham qamrab olishi kerak. Amalda esa ko'plab korxonalarda inventarizatsiya faqat hisobdagi son va hujjatlar asosida olib boriladi. Bu esa aktivlarning real eskirish darajasini aniqlash imkonini bermaydi. Shu bois, audit jarayonida fizik tekshiruv va mustaqil baholash kompaniyalari xulosalarini jalb qilish majburiy bo'lishi lozim.

Uchinchidan, CPCON tomonidan ishlab chiqilgan "5 bosqichli cheklist" — auditga tayyorgarlik jarayonida hujjatlarni ko'rib chiqish, aktivlar hisobotlarini moslashtirish, jamoani tayyorlash, joylarda sharoit yaratish va muvofiqlik hujjatlarini tayyorlash — O'zbekistonda korxonalar uchun amaliy metodik qo'llanma sifatida joriy etilishi mumkin. Bu audit jarayonini soddalashtiradi va aniqligini oshiradi.

To'rtinchidan, Researchparks jurnallarida ta'kidlanganidek, asosiy vositalar auditing tashkiliy va metodologik jihatlari, auditorlarning malakasi hamda ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlash masalasi muhimdir. O'zbekistonda auditorlar tayyorlashda amaliyotdan ko'ra nazariyaga urg'u beriladi. Shu bois, xalqaro standartlarga asoslangan trening va sertifikatlashtirish dasturlarini joriy etish lozim.

Beshinchidan, Jahon banki tomonidan chop etilgan "Strengthening fixed asset management" hisobotida davlat sektori uchun asosiy vositalarni hisobga olishda aktivlar reestrini yaratish, muntazam qayta baholash va moliyaviy hisobotlarda to'liq aks ettirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekistonda byudjet tashkilotlari balansida qadrsizlanmagan, yaroqsiz aktivlar ko'pligi sababli, IPSAS standartlari asosida yagona davlat aktivlari reestrini yaratish dolzarbdir.

Oltinchidan, EY tomonidan tayyorlangan "Worldwide Capital and Fixed Assets Guide 2025" qo'llanmasida soliq va amortizatsiya qoidalarini xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish muhimligi ta'kidlangan. O'zbekistonda soliq maqsadida qo'llaniladigan amortizatsiya siyosati ko'pincha buxgalteriya hisobotidan farq qiladi, bu esa moliyaviy shaffoflikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli soliq va buxgalteriya hisobini maksimal darajada uyg'unlashtirish tavsiya etiladi.

Yettinchidan, Xassets.com manbasida yoritilgan "Best Practices in Fixed Asset Management" maqolasida ichki nazoratni kuchaytirish, audit izlarini yaratish, lizing aktivlarini hisobga to'liq kiritish va "Construction in Progress" obyektlarini alohida yuritish amaliyoti haqida fikr yuritilgan. O'zbekiston sharoitida aynan qurilish obyektlari va lizing asosidagi aktivlarni hisobda noto'g'ri aks ettirish muammosi keng tarqalgan. Shu sababli bu tajribalarni amaliyotga tatbiq etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalarni hisobga olish va audit qilish tizimini O'zbekistonda takomillashtirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar belgilanishi lozim:

1. NASni xalqaro standartlar (IFRS va IPSAS) bilan uyg'unlashtirish.
2. Audit jarayonida 7 bosqichli tekshiruv va 5 bosqichli cheklistni joriy etish.
3. Auditorlarning malakasini oshirish va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.
4. Davlat sektori uchun yagona aktivlar reestrini yaratish va IPSAS talablarini tatbiq etish.
5. Soliq va buxgalteriya hisobini uyg'unlashtirish orqali amortizatsiya siyosatini isloh qilish.
6. Raqamli texnologiyalar (ERP, blockchain, RFID, AI)ni keng qo'llash.

Shu tarzda, O'zbekiston asosiy vositalar hisobi va auditini xalqaro standartlar hamda ilg'or amaliyotlar asosida modernizatsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlik va investitsion jozibadorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda asosiy vositalarni hisobga olish va ularni audit qilish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator dolzarb muammolar mavjud. Birinchidan, milliy standartlar va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar moliyaviy axborotlarning solishtirilishini qiyinlashtirmoqda. Ikkinchidan, amortizatsiya siyosati turlicha qo'llanilib, moliyaviy natijalarning haqqoniyligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Uchinchidan, qadrsizlanishni aniqlash mexanizmi to'liq shakllanmaganligi sababli aktivlarning real qiymati hisobotlarda noto'g'ri aks etmoqda. To'rtinchidan, komponent yondashuvining joriy qilinmaganligi yirik obyektlar bo'yicha amortizatsiya hisobida xatoliklarga olib kelmoqda. Nihoyat, audit jarayonida mavjudlik va baholash risklari yuqoriligicha qolmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Milliy buxgalteriya standartlarini bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish.
2. Auditorlar uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va muntazam ravishda yangilash.
3. Asosiy vositalar qadrsizlanishini aniqlash tartibini joriy etish va baholovchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish.
4. Komponent yondashuvini keng tatbiq etish orqali moliyaviy natijalarni haqqoniyroq aks ettirish.
5. Raqamli texnologiyalarni (ERP, blockchain, RFID, AI) keng joriy etish orqali hisob va audit jarayonlarini



avtomatlashtirish.

6. Auditor va buxgalter kadrlarning malakasini oshirish uchun xalqaro tajriba asosida doimiy ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish.

Asosiy vositalar hisobi va ularni audit qilish masalalarini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish O'zbekiston korxonalarining moliyaviy barqarorligi va shaffofligini oshirish, xorijiy investorlar uchun ishonchli muhit yaratish hamda mamlakatning xalqaro kapital bozorlarida faol ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 24.02.2020 yildagi No. PQ-4611-son
2. Mamarasulov D.A. & Kudbiyev D. (2024). Preparation of reports for the first time according to international standards of financial reporting. Innovative Development in Educational Activities, 3(5), 28–37.
3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10823600>
4. Mamarasulov D.A. (2024). IMPROVING INVESTMENT PROPERTY ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: A FOCUS ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS). Экономика и социум, (4-1 (119)), 308-316.
5. Mamarasulov D.A. (2024). Important issues of accounting for fixed assets according to the requirements of international financial reporting standards. Journal of Management Value & Ethics, India Gwalior-M.P. Jan-March 24 Special Issue, 88-94. http://jmveindia.com/journal/JAN-MARCH%2024_IS-2024.pdf
6. Mamarasulov Diyorbek Alijon Ugli, & Kudbiyev Davlatbay (2024). EXPLORING FIXED ASSET IMPAIRMENT ACCOUNTING PRACTICES IN UZBEKISTAN. Science and innovation, 3 (Special Issue 24), 179-184.
7. doi: 10.5281/zenodo.11002704
8. Кудбиев, Д., & Мамарасулов, Д. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ. Nashrlar, 3(M), 81–84.
9. <https://doi.org/10.60078/2024-vol3-issM-pp81-84>
10. Diyorbek Alijon O'G'Li Mamarasulov (2022). MHXS BO'YICHA BIRINCHI HISOBOT TAYYORLASH MUAMMOLARI. Scientific progress, 3 (4), 474-485.
11. Mamarasulov Diyorbek Alijon Ugli (2024). IMPROVING THE PREPARATION OF CONSOLIDATED FINANCIAL STATEMENTS OF FIXED ASSETS IN THE DIGITAL ECONOMY. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (7), 507-522.
12. Brown, A., & Wilson, T. (2021). Challenges in ERP Implementation: A Comprehensive Review. Journal of Business Research.
13. Khatamov A. (2018). Asosiy vositalar hisobi va auditining nazariy asoslari. Toshkent.
14. Ismanov A., Moydinov B. (2022). IFRS bo'yicha komponent yondashuvni qo'llashning afzalliklari. Ilmiy axborotlar to'plami.
15. Boltayev A. (2023). Qishloq xo'jaligida asosiy vositalar hisobi va soliq-buxgalteriya tafovutlari. Samarqand.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
